



2 (58)-son  
2018-yil, fevral

# IJODIY PARVOZ

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi*

**Hirot va Samarqand... Samarqand va Hirot... Bu shaharlar shunchaki Alisher Navoiy hayot kechirgan, faoliyat yuritgan shaharlar emas, balki Navoiy olamiga, u yashagan moziyga guvohlik bera olish huquqiga ega bo'lgan muazzam shaharlardir.**


## NAVOIY BOBURE'ZOZIDA

Sharqshunoslikda XV-XVI asr adabiy muhiti haqida gap ketganda, albatta, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hamda mashhur sarkarda, shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida mulohaza yuritiladi. Chunki bu ikki shaxsning, nafaqat o'zbek adabiyoti, balki umumbashariy madaniyat taraqqiyotiga, jahon adabiyoti xazinasiga behisob hissa qo'shganliklarini butun dunyo ahli e'tirof etib keladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganish birgina O'zbekistonda emas, balki dunyoning ko'plab sharqshunos olimlari tomonidan uzoq yillardan beri tadqiq etib kelinmoqda. U haqda behisob asarlari yaratilganligi ham bejiz emas. Bugungi kunimizda Navoiy haqida ko'p yozilayapti. Ilgarilar ham yozilardi, lekin bugungisi boshqacha. Bugun mustaqillikdek buyuk ne'mat tufayli Navoiy butun bo'y-basti bilan gavdalanoqda. Xalqimiz o'zining bunday buyuk farzandiga ehtiromini izhor etish, uning nomini yanada abadiylashtirish yo'lida ko'p amaliy ishlarni ro'yogba chiqarmoqda. Bunga har birimiz guvoh bo'lib turibmiz. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu ulug' inson haqida quyidagilarni aytadi: "Mutafakkir shoirimizning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami", degan satrlarida qanchalik chuqur ma'no bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash - odamiylarning eng oliy mezoniadir. Xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb uqtirmoqda ulug' bobomiz" [1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — B. 112]. Bu fikrlar buyuk Navoiyning insonparvarlik borasidagi xislatalariga berilgan buyuk bahodir.

Navoiy bizga juda katta adabiy meros qoldirdi. Uning har bir asari va g'azalida inson, uning orzu-umidlari tarannum etildi. Navoiyning ana shunday orzu-umidlardan biri o'zbek tilining takomili, uning

butun bo'y-bastini, go'zalligini ko'rsata olishi edi. Bugun biz Navoiyni "O'zbek adabiy tilining asoschisi" deymiz. Navoiyga berilgan bu ta'rif o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi beqiyos xizmatlarining e'tirofi sifatida xalqimiz tomonidan unga bildirilgan buyuk ehtirom va minnatdorlik ramzidir.

To'g'ri, o'zbek adabiy tili Navoiygacha ham mavjud bo'lgan, bu tilda ham ko'plab ijodkorlar qalam surganlar. Navoiy o'zigacha yashab ijod qilgan barcha turkiyo'y ijodkorlar tomonidan adabiylashtirilgan o'zbek tiliga yangidan jon ato etib, u tilda ijod qildi, uni har tomonlama boyitib, juda yuksak darajaga olib chiqdi. Navoiy o'zbek adabiy tili uchun kurash bayrog'ini baland ko'tarib, barcha asarlarini, xususan, buyuk "Xamsa"ni ayni shu tilda yaratdi. Bu haqda dunyoning ko'pgina yirik olimlari o'z samimiy fikrlarini aytganlar. Xususan, akademik N.I.Konrad «Markazi sharq uyg'onishi va Alisher Navoiy» nomli maqolasida Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi bilan bog'liq ajoyib bir holatni quyidagicha tasvirlaydi: "Bilasizmi, Navoiy "Xamsa"ni yozib tugallaganidan keyin qanday hodisa sodir bo'lgan? U mazkur asarini ustozni va yaqin do'sti Abdurahmon Jomiyiga ko'rsatmoqchi bo'ladi, bunday qilishi kerak ham edi. Jomiy asarga bir nazar tashladi, bu uning uchun yetarli edi, shogirdining yelkasiga qo'lini qo'ysi. Shu onda u (Navoiy – I.Y.) xayolan ajoyib bir bog'da ulug' kishilar davrasida bo'lgandek his etdi. Ulardan biri uning yoniga keldi, u mashhur shoir Dehlaviy edi. Dehlaviy Navoiyga davradagi ulug' insonlarning u bilan suhabat qurish istagida ekanliklarini aytadi. Mana, Alisher oldida uch buyuk inson: o'rtada – Nizomiy, o'ng tarafda - Amir Hisray, chap tomonda – Jomiyning o'zi. Ularning ortida esa Firdavsiy, Unsuriy,



Nosir Hisrav, Anvari, Hoqoni, Sanoiy, Sa'diyalar saf tortishgan... Navoiy yelkasiga qo'yilgan qo'l ustozining qo'li edi, Ustozning o'z shogirdiga qilishi mumkin bo'lgan samimiy munosabati va Navoiy "Xamsa"sining e'tirofi belgisi edi bu. Demoqchiki, u yaratgan "Xamsa" Navoiyni qanday buyuklar safiga olib keldi" [2. Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и меамп. — Москва: Hayka, 1978. — с.92]. Bu so'zlar mashhur olimning Navoiy dahosiga bo'lgan e'tirofi namunasi edi.

Jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining yana bir buyuk farzandlaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur edi. Uning o'lmas asarlari bugun ham o'z qadrini zarracha yo'qotmasdan, aksincha, avvalgidan ham qadr-qimmatga ega bo'imodqa. Bobur davlat arbobi, lashkarboshi bo'lishi bilan birga shoir, adib va olim ham edi. Navoiydek ardoq va obro'-e'tiborga ega bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning boy ijodiy merosi uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda.

Bobur Navoiy bilan bevosita uchrashmagan bo'lsada, ular orasida iliq munosabat bo'lgan. Bobir o'z asarlarida Alisher Navoiyni yigirmaga yaqin o'rinda tilga olgan. Xususan, «Boburnoma»da o'qiyimiz: «Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat menga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim...»

**Davomi 2-sahifada**

## BETAKROR SIYMOLAR "TAKROR" I

*Navoiy hazratlarining g'azallarini o'qiganda zakovati ko'zlarida balqan, qalb manzari chehrasini munavvar etgan ulug' siymo ko'z o'ngimizda gavdalananadi. Bobur Mirzoni tilga olarkanmiz, beixtiyor shijoatli, otashqalb sulton tasavvurimizga keladi. Sahna esa ul betakror siymolarning takrorini yaratishni talab qiladi. Biz shu mas'uliyatni yelkalay olgan, sahnada Navoiy va Bobur rollarini ijro etgan aktyorlarni, sahnalashtirgan rejissyorlarni va ikki mutafakkirga bag'ishlangan dramatik asarlarni bir-bir yodga olishga qaror qildik.*

\*\*\*

Ilk marotaba 1945-yil 1-aprelda "Alisher Navoiy" spektakli **Mannon Uyg'ur** rejissyorligida sahnalashtirilib, mutafakkir obraxini **Abror Hidoyatov** gavdalantirdi. Kompozitor **Musal Burxonov** spektaklga musiqa yozdi. Asarning mualliflari adabiyotshunos **Izzat Sultan** va shoir **Uyg'un** hamda teatr jamoasi hamkorligida 1948-yilda spektaklning qayta tahrirdagi yangi variyanti namoyish etildi. Ushbu mashhur variantda Navoiy siyosinini yaratish **Olim Xo'jayevga** nasib qildi. Aktyor bu rolni 25 yil davomida ijro etdi va Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Asar 1968-yil **Mannon Uyg'ur**

va **Toshxo'ja Xo'jayev**, 1991-yilda **Turg'un Azizov** va **Munavvara Abdullayevalar** rejissyorligida qayta sahnalashtirilgan. Navoiy rolini **Yodgor Sa'diyev**, **Mahmud Ismoilov**, **Yoqub Ahmedov** kabi mohir aktyorlar ijro etishdi.

\*\*\*

1950-yil mazkur asar rejissyor **Abbos Bakirov** tomonidan **Andijon viloyati** musiqli drama teatrida namoyish etildi.

1991-yilda esa shu teatrda **Z.Muhiddinov** va **M.Hamidovlar** muallifligida **Bahodir Nazarov** va **Mirzakarim Boboyev** tomonidan sahnalashtirilgan "Bobur" spektakli sahna yuzini ko'rdi.

\*\*\*

1951-yil "Alisher Navoiy" spektakli **Asror Jo'rayev** rejissyorligida Samarqand viloyat musiqli drama teatrida sahnalashtirilgan.

\*\*\*

1952-yilda mazkur asar **Obid Jalilov** rejissyorligida Buxoro viloyati musiqli drama teatrida namoyish etilib, Navoiy rolini **A.Akobirov** ijro etdi. 1973 yilda esa A.Akobirovning o'zi spektaklni qayta sahnalashtiradi.

\*\*\*

1958-60-yillarda Qo'qon shahar musiqli drama teatrida sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" spektaklida **Z.Mirzatov** Navoiy obraxini gavdalantirgan edi.

\*\*\*

1966-yil Muqimiymnomidagi O'zbekiston davlat musiqli teatrida Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan **Razzoq Hamroyev** "Navoiy Astrobodda" musiqli dramasini sahnalashtirib, o'zi bosh rolni ijro etgan.

1971-yil asar Jizzax viloyat musiqli drama teatrida sahnalashtirilib, **H. Amirqulov** ijro etgan Alisher Navoiy roli teatrga shuhrat keltirgan edi.

\*\*\*

Kattago'rg'on shahar drama teatrida **Zubaydilla Ro'ziyev** rejissyorligida "Navoiy Astrobodda" spektakli namoyish etildi.

\*\*\*

1983-yilda **Pirimkul Qodirov** romanining **S.Safronov** insenirovkasi asosida sahnalashtirilgan "Yulduzli tunlar" spektakli Bobur haqida yaratilgan ilk sahna asari sifatida shuhrat qozondi. Asar rejissyor **Bahodir Yo'idoshev**, Bobur Mirzo rolini **R.Avazov**, **Y.Sa'diyev**, **Y.Ahmedovlar** ijro etishgan. Asarda S.Jalilovning musiqa sayqallaridan foydalilanigan. Spektakl rassomi G.Brim.

\*\*\*

1984-yilda Sirdaryo viloyati musiqli drama teatrida **G.Hamidillayev** sahnalashtirgan "Alisher Navoiy" spektaklida bosh rolni **A.Yusuvaliyev** ijro etdi.

**Davomi 2-sahifada**

(Davomi. Boshi 1-sahifada)

Javob kelguncha, tafriqa va g'avg'o bo'ldi» /3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: Sharq, 2002. — B. 81/. Bobur Alisher Navoiyni benihoya hurmat va ehtirom bilan tilga oladi, uni e'zozlaydi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. ... Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha, murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay» /4. Ko'rsatilgan asar, 132-b.]

Shuningdek, "Boburnoma"da Navoyning Andijon eli tilida ham ijod qilganini aytib o'tadi: "Eli turkdur. Shahri va bozorida turkiy bilmas kishi yuqtur. Elining lafzi qalam bila rosttar. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirija nash'u namo topibtur, bu til biladur" /5. Ko'rsatilgan asar, 34-b/>. Matnning o'zbekcha tabdilini ham keltiramiz: "Eli turkdir (o'zbekdir). Shahar aholisi va bozorga keluvchilardan turkiyni bilmaydigan kishi yo'q. Elining tili adabiy tilga muvofiq. Shuning uchun ham Mir Alisher Navoiyning asarlari, garchand Hiriy (Hirot)da shuhurat qozongan bo'lsada, bu til bilan yozilgan" /6. Ko'rsatilgan asar, 29-b.]

Boburning Navoiy ijodi haqidagi mazkur fikrlari bugunga qadar turlicha talqin qilinadi. Ko'pgina tadqiqotchilar Boburning fikrlarini aynan qabul qilsalar, ayrimlar bunga boshqacha yondoshadilar. Xususan, jahonga mashhur olimlardan A.Vamberi, N.I.Ilminskiy, A.Y.Yakubovskiyar Boburning Navoiy asarlari haqidagi fikrlarini to'liq qabul qiladilar. Lekin, A.K.Borovkovning yozishicha, N.I. Ilminskiy o'sha davrdagi jonli til bilan umumadabiy tilning bu qadar yaqin bo'lganligiga, qolaversa, bu tilda Navoiy o'z asarlarida qo'llaganchalik darajada xorijiy til unsurlarining bu qadar ko'p bo'lganligiga shubha bilan qaraydi /7. Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка//Алишер Навои. — М.Л. Наука, 1946. — С. 98].

A.K.Borovkov ham Bobur fikrlarini qo'llaydi, lekin Navoiyning butun umri Hirotda o'tganligi, Andijonda umuman bo'Imaganligi, faqatgina andijonliklar bilan tasodifan uchrashib qolganligini aytib, Navoiy qo'llagan adabiy tilning Andijon

lahjasi bilan tamoman bir xil deb qarashga mulohazalanadi /8. Borovkov A.K. Alisher Navoi kak osnovopolojnik uzbekskogo literaturnogo yazika// Alisher Navoi. —M.L., Nauka, 1946. —S.98-99].

A.Y.Yakubovskiy XV asr o'zbek tilini madaniy jihatdan yuksak bo'lganligini e'tirof etadi. Navoiy tili shahar madaniyatining nozik irmoqlaridan suv ichganligini, xalq tili bilan uyg'unlashganligini bildirib o'tadi. Shuningdek, Bobur o'z yozuvlarida Shosh va Farg'onaga, uning poytaxti Andijonga beqiyos tafsiflar berib, Andijon lahjasining o'ziga xos afzalliklari haqida fikr bildirganligini yozadi. Boburning Navoiy asarlari tili haqidagi fikrlarini quyidagicha izhor etadi: "Население Андижана тюркское. Не встетиши никого в городе или на базаре, кто не знал бы тюркского языка. Разговорный язык тот же, что и литературный. Характерно, что сочинение Алишера Навои написаны на андижанском нарежии, хотя он и жил в Герате". Едва ли Бабур здесь что-нибудь преувеличил" /9. Якубовский А.Й. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои // Алишер Навои. — М.Л. Наука, 1946. — С.15-16].

O'zbek olimlaridan V.Abdullayev, F.Abdullayev, X.Doniyorov, Q.Sodiqov, Z.Xolmonova kabilar ham Boburning fikri haqida o'z qarashlarini bayon qilishadi. X.Doniyorov yozadi: "V.A.Abdullayev ... "Alisher Samarqanda" maqolasida "Bobur Alisher tilining andijonliklarning muomala munosabatiga yaqinligini, Andijon tili bilan rost kelishini e'tirof etadi... Alisher tilidagi ko'nkmalar yigitligining ayni avjida, xuddi shu yerda, Samarqanda zohir bo'lgan" deb yozadi. V.A.Abdullayev tomonidan ko'rsatilgan bu sababni, bizningcha, Andijon shevasining Navoiy tiliga asos bo'lishini izohlovchi vajli dalillardan biri deb ko'rsatish mumkin" /10. Doniyorov X. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini o'rganish masalasiga doir //Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. — Toshkent: Fan, 1968. — B. 291]. Z.Xolmonova Bobur fikrining Q.Sodiqov talqinidagi shaklini ma'qul ko'radi: «Eli turkdir. Shahri va bozorlarda turkiy bilmas kishi yo'qdir. Elining lafzi qalam bilan (yozma adabiy til bilan) mosdir. Ne uchunkim (ajablansarlisi), Mir Alisher Navoiyning tasniflari (asarlari), (uning o'zi) Hiriyda o'sib ulg'ayganiga qaramay — ushbu tilda (Farg'ona va Hirot adabiy muhitlari uchun yagona bo'lgan adabiy tilda)dir» /12. Xolmonova Z. "Boburnoma" leksikasi. — Toshkent: Fan, 2007. — B.46 J.



yil emas, balki 4-5 yil bo'lganligini, bu vaqt ichida Navoiy Samarcandning janub tomonlaridagina emas, balki uning sharq tomonlarida, ya'ni Andijon tomonlarida ham bo'lgan bo'lishi ehtimolligini, shuningdek, Navoiy Andijon shevasi bilan bolalik vaqtlarida o'sha Hirotdayoq tanisha boshlagan bo'lishi mumkinligini, buning sababi Hirota Andijon tomonidan juda ko'plab ustalar, askarlar, askarboshilar, kosiblar, ayniqsa, andijonlik shoir va mashshoqlarning borganligini va ularning yaxshi obro'ga ega bo'lganligini ko'rsatib o'tadi /11. Doniyorov X. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini o'rganish masalasiga doir //Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. — Toshkent: Fan, 1968. — B. 291]. Z.Xolmonova Bobur fikrining Q.Sodiqov talqinidagi shaklini ma'qul ko'radi: «Eli turkdir. Shahri va bozorlarda turkiy bilmas kishi yo'qdir. Elining lafzi qalam bilan (yozma adabiy til bilan) mosdir. Ne uchunkim (ajablansarlisi), Mir Alisher Navoiyning tasniflari (asarlari), (uning o'zi) Hiriyda o'sib ulg'ayganiga qaramay — ushbu tilda (Farg'ona va Hirot adabiy muhitlari uchun yagona bo'lgan adabiy tilda)dir» /12. Xolmonova Z. "Boburnoma" leksikasi. — Toshkent: Fan, 2007. — B.46 J.

Albatta, Boburning Alisher Navoiy asarlari tili haqidagi bebaho fikrlari uning Navoiy asarlari juda yaxshi bilganidan va unga nisbatan bee'tibor bo'Imaganidan dalolat beradi. Aytish mumkinki, Boburning Navoiy tilining Andijon lahjasiga aynan mos kelishini bo'rttirib ko'rsatishga unda hech qanday

ehtiyoj yoki majburiylik yo'q edi.

Boburning ustoz Navoiyga bo'lgan chuqrur hurmatini hind adabiyotshunos olimi Qamar Rais yuqori baholaydi. U Toshkentdag'i uchrashuvlardan birida quyidagilarni bayon qiladi: «O'zbek va hindlarning ulug' shoiri, lashkarboshi Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga boraturib, Hirotdagi eski kulbada bir necha kun tunab qoladi. Bu ko'plarni taajjublantirdi, albatta.

— Shohim, Siz uchun ajratilgan maxsus qasr qolib, xarob kulbada tunashingiz sababi nimada? - deb so'rab qoldi mulozimlardan biri. Shunda Bobur:

— Bu kulbada bir necha yil muqaddam Mir Alisher Navoiy istiqomat qilganlar, bu yer men uchun har qanday shohona qasrdan ham muqaddasdir. Shu sababli bir necha kunlik vaqtimni shu joyda o'tkazishga qaror qildim, toki hazrat ruhlari menga madadkor bo'lsin» /13. Nazarova H. Bobur va o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Fan, 1983. — B. 13].

Albatta, Bobur uchun ustozni Alisher Navoiy bilan shaxsan suhbatdosh bo'Imagan katta armon bo'ldi. U 1506 yilda Hirota kelganida Navoiy vafot etgan edi. U Alisher Navoiy yashagan uymi, u qurdirgan imoratlarni va albatta, uning maqbarasini ziyorat qiladi. Bobur Husayn Boyqaroning o'g'illari Badiuzzamon Mirzo hamda Muzaffar Mirzolar tomonidan hurmat ramzi sifatida o'ziga ko'rsatilgan shohona joyda istiqomat qilmasdan, Hirotdan ketgunga qadar Navoiy yashab ijod qilgan uyda turadi. Bu haqda quyidagilarni yozadi: «Hiridin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim. Har ikki-uch kunda borib, Bog'i Jahonoroda Badiuzzamon Mirzog'a ko'runush qilur edim» /14. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: Sharq, 2002. — B. 144].

Ushbu tarixiy dalillar Boburning o'z ustozni Alisher Navoiyni qanchalik hurmat qilgani, unga cheksiz ehtirom va e'zozining ramzidir. Ustoz va shogird o'rtasidagi bunday o'zarlo hurmat va e'zoz munosabati bugun ham bizga o'rakdir.

**Ibrohimjon YO'L DOSHEV,**  
Institut rektori,  
filologiya fanlari doktori, professor

## Встреча координаторов Международных проектов «Week of Coordinators» по программе EC «Erasmus+»

С 15 по 20 января в стенах одного из старейшего ВУЗа Европы, в Университете Гранады (Андалусия, Королевство Испания) прошла встреча координаторов Международных проектов «Week of Coordinators» комиссии Европейского Союза «Erasmus+».

Университет Гранады основан согласно папскому указу Климента VII в 1531 году. Насчитывает более 80 тыс. студентов и 3641 преподавателей. Один из самых больших и престижных вузов страны. Обучение ведется на 17 факультетах. Помимо Гранады университет имеет кампусы в Сеуте и Мелилье. Является членом Коимбрской группы и Ассоциации средиземноморских университетов.

Единственным представителем Республики Узбекистан в качестве координатора являлся преподаватель нашего института, а именно кафедры «Звукорежиссуры и операторского мастерства» Эльдар Юлдашев. Активная неделя была наполнена лекциями, тренингами и семинарами от ведущих учёных Испании, руководства ВУЗа. Основная тема: создание и прагматическое руководство в международном сотрудничестве, создание интернационализации и транснационального климата в учебных учреждениях.

На встрече принимали участие 100



координаторов со всех континентов (было представлена 41 страна). Была получена полная инструкция по модернизации и систематическом функционировании международного отдела, международного центра и международных офисов как на уровне ВУЗа, так и на уровнях факультета и кафедр. Для координаторов читали доклады ректор, проректор, начальники отделов, зам деканы и профессоры университета.

В виде матрицы были предложены рекомендации для дальнейшего функционирования данной системы в партнёрских странах программы Erasmus+, в том числе и в Узбекистане.

Представитель Государственного института искусств и культуры Узбекистана высказался с докладом, принимал активное участие в дискуссиях за что был отмечен благодарственным письмом от ректора Университета Гранады.

**Аслиддин ШАРИПОВ,**  
магистрант ГИИКУз

## BETAKROR SIYMOLAR "TAKROR" I

(Davomi. Boshi 1-sahifada)

2003-yilda Xurshid Davronning "Bobur sog'inchi" asari asosida Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida spektakl namoyish etilgan.

\*\*\*

2016-yil rejissyor Rustam Hamidov tomonidan sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" spektaklining yangi tahririda Navoiy obrazini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Behzod Muhammadkarimov ijro etdi.

\*\*\*

Muhammadali Abduqunduzov yaratgan «Layli va Majnun» dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakldagi Alisher Navoiy siyosi, "Bobur" spektaklidagi Mirzo Bobur rollari alohida ahamiyatga ega.

\*\*\*

2016-yil "Diyord" teatr studiyasida "Yulduzli tunlar" spektakli namoyish etildi. Bobur rolini Alisher Uzoqov mahorat bilan ijro etdi. Spektakl rejissori Bahodir Yo'ldoshev.

\*\*\*

2017-yil Samarcand viloyat musiqali drama teatrida O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo qalamiga mansub "Samarcand sayqali" asari sahnalashtirildi. Asar rejissori Jo'rabej Ro'zimetov, Navoiy rolini Farid Rasulov ijro etdi.

\*\*\*

2017-yil Farg'ona viloyat musiqali drama teatrida O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Navoiy va Boyqaro" asari asosida Marat Azimov rejissoryligida yaratilgan spektaklda Navoiy rolini Adham Qirg'izboyev ijro etdi.

\*\*\*

Hazrat Alisher o'zbek she'riyatining sheri ersa, Mirzo Bobur shijoatli barsidir. Ul zotlarning siyosini yaratish munosib egalariga mudom nasib etaversin...

\*\*\*

Shavkat DO'ST MUHAMMAD,  
Muxbirilar klubi sardori

Ўтаётган хар бир кунимиз қатор янгиликлар, турфа ислоҳотлар ва ўзгаришлар силсиласига бой бўлмоқда. Айни вактда институтимизда амалга оширилаётган мухим жараёнлар сизни бефарқ қолдирмайди.

## МУХИМ ЖАРАЁНЛАР СОЛНОМАСИ

1. Институтимиз ректори, филология фанлари доктори, профессор Иброҳим Юлдашев бошчилигига илмий изланишлари, мустақил тадқиқот ишлари юзасидан ўзбек санъатини ривожлантириш, соҳадаги мавжуд муаммолар ечимини топиш, янги инновацион ғоя ва тақлифлар ишлаб чиқиши вазифалари юзасидан таянч докторантура, мустақил изланувчи ҳамда эркин тадқиқотчи ҳисобланган PhD, DSc тизимдаги жами 24 нафар докторантларнинг илмий-тадқиқот мавзулари юзасидан олиб бораётган ишлари хусусида хисобот мажлиси бўлиб ўтди. Мазкур мажлиса диссертация ишлари мухокама қилиниб, қатор тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

2. Умри давомида ҳалол қасби ва юксак инсоний бурчи орқали Ватан сарҳадларини кўриклиш, эл-юрт осоишишалигини саклаш, мудофаа, ҳавфсизлик сингари вазифаларни сиддиқиддан адо этувчи ҳарбийларимиз фаолияти билан талаба-ёшларни яқиндан таништириш мақсадида Ўзбекистон “Ветеран” жангчи-фаҳрий ва ногиронлар бирлашмаси билан ҳамкорликда “Жасорат” номли маданий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

3. Олийгоҳимизнинг ўқув театрида улуғ бобокалонларимиз, ўзбек мумтоз адабиёти асосчиси, газал мулкининг султони, буюк давлат ва жамоат арбоби Алишер Навоийнинг 577 йиллиги муносабати билан “Эл нетиб топгай мениким” номли, ўзбек мумтоз адабиётининг забардаст вакили, тарихчи олим, шоҳ ва шоир Захиридин Муҳаммад Бобур таваллудининг муборак 535 йиллигига бағищланган “Бобур бўстони — диллар гавҳари” номли адабий-бадиий кечалар ўтказилди

4. Институтимизнинг бир қатор профессор-ўқитувчилари ҳамда талаба-ёшлар 9 февраль

газал мулкининг султони Алишер Навоий таваллуд айёми муносабати билан анъанавий тарзда Тошкент шахридаги “Миллий боф” хиёбонидаги Ҳазрат Алишер Навоий ҳайкали пойига гулчамбар қўйиш маросимида иштирок этишиди.

5. Институтга бир қатор ҳамкорлар – ТИКА (Turkish International Cooperation and Development Agency)нинг Ўзбекистондаги Туркия ваколатхонаси раҳбари Али Ихсан Чағлар, раҳбар ўринбосари Онур Гез, ваколатхонанинг малака ошириш ва ўқув дастурлари бўйича координатори Мустафа Хашим Пўлат ҳамда ассистент, таржимон Сабоҳат Назар-муҳаммедовалар ташриф буоришиди. Ўзаро ҳамкорлик шартномалари имзоланди.

6. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг “Касбий тайёргарлик” факультети Ҳуқуқий фанлар цикли ўқитувчилари, Тошкент шаҳар ИИБ ЖҚБ гиёҳвандликка қарши курашиш бўлими ҳодимлари, Мирзо Улуғбек тумани ИИБ 10-шаҳар ИИБ ЖҚБ тезкор вакиллари билан ҳамкорликда “Ёшлар орасида гиёҳванд воситаларини тарқатилишига қарши кураш” ва “Алкоголь маҳсулотларнинг инсон соғлиғига салбий таъсири” мавзуидаги учрашув бўлиб ўтди.

7. Пойтахтимизда фаолият юритаётган Гейдар Алиев номидаги Озарбайжон маданият маркази ҳамда институтимиз ўргасида ҳамкорлик юзасидан ийрик меморандум имзоланди. Ректорат биносининг учинчи қаватида Озарбайжон Республикаси маданий ҳаётини акс эттирувчи кўргазма аудиторияси ташкил этилди.

**Достонбек РАҲМАТУЛЛАЕВ,  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият  
инstituti matbuot xizmati kotibi**

## КОРРЕСПОНДЕНТИВ ТАКЛИФ

Юртимизда ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор вазифаларидан бири уларнинг қобилиятларини шакллантириш, келажакда танлаган мутахассисликлари бўйича етук ва малакали кадр этиб тарбиялашдан иборатdir. Худди шу мақсадларни кўзлаган ҳолда ҳозирда Республикаизда ёшлар харакатининг етакчи ташкилоти бўлмиш Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи марказий кенгаши раиси, давлат маслаҳатчisi Қаҳрамон Қуронбоев билан онлайн мулокот ташкил этилди.

Мазкур мулокотдан кўзланган асосий мақсад биз юқорида таъкидлаган истеъододли ва маҳоратли ёшларни аниқлаш, соҳаларга йўналтириш, бандликка кўмаклашиш сингари қатор босқичларни ўз ичига олади. Онлайн учрашувда Ўзбекистон давлат санъат ва маданият инститuti “Халқ ижодиёти” факультети 3-босқич талабаси Бобур Убайдуллаев ўзининг корреспондентив таклифи билан фаол қатнашди. Таклифга кўра “Ёш санъаткорлар кенгаши”ни ташкил этиш ҳамда ўзи таҳсил олаётган олий таълим муассасасида истеъододли талабаларнинг маҳоратларини шакллантириб, уларнинг ижодий ишларини яратишга ва реклама қилишга кўмак бериш каби тамойиллар белгиланган.

Ушбу таклиф мутасадди ташкилот томонидан ижобий баҳоланди. Ҳозирда Бобур Убайдуллаев Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи кенгаши билан ҳамкорликдаги билдирилган таклифнинг амалий дастурларини ишлаб чиқиши ишларига киришди. Биз эса фаол ва ҳаракатчан тенгдoshimizga улкан мақсадларда омадлар тилаймиз! Зоро, қалби шижаотга тўла истеъододли ёшлар юртимиз тараққиётiga албатта муносиб хисса қўшишади.

**Юнусхон ЗАЙНИДДИНОВ,  
“Эстрада ва оммавий томошалар режиссёrligi”  
мутахассислиги 1-босқич магистранти**

### Hurmatli kitobxonlar!

Institut Axborot-resurs markaziga fanning turli sohalariga oid olingan yangi adabiyotlari bilan sizlarni qisqacha tanishitirish maqsadida “ARM yangiliklari” ruknini tayyorladik.

Mazkur adabiyotlarni Axborot-resurs markazimizdan hamda institut sayti orqali o'qishingizni tavsiya qilamiz.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarları

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 592 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev asarlarining 1-jildidan davlatimiz rahbarining 2016-2017 yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis, Vazirlar Mahkamasining yig'ilishlarida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda, turli soha vakillari bilan uchrashuvlarda, Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida, xalqaro anjumanlar, tadbir va marosimlarda so'zlagan nutq va ma'ruzalar hamda tabriklari o'rin olgan.

### Tarix sohasi bo'yicha adabiyotlar

Alimardonov T. O'chmas sharaf: Sharof Rashidov hayoti va faoliyatini tarix ko'zgusida. — Toshkent: Dono, 2017. — 276 b.

Monografiyada muallif davlat, jamiyat va xalq tarixi bilan shaxs va uning faoliyati tarixi o'rtasidagi bog'liqlikka doir turli ilmiy, nazariy qarashlar mohiyati yuzasidan fikr yuritar ekan, shaxsning millat va uning tarixida tutgan o'rnini Sharof Rashidov timsolida oshib bergan.

### Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. — Toshkent: Ma'naviyat, 2017. — 183 b.

Ushbu ilmiy-ommabop risola O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasining oliy darajadagi yalpi majlisida so'zlagan nutqining mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida atroflichha fikr yuritilib, unda ilgari surilgan o'ta muhim va dolzarb fikr va g'oyalilar, amaliy taklif va xulosalar bo'yicha mamlakatimizdagagi taniqli olim va mutaxassislarining tahlili mulohazalari bayon qilinadi.

### Folklor sohasi bo'yicha adabiyotlar

Toshmatov O., va boshq. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar: monografiya. — Toshkent: Tafakkur, 2017. — 216 b.

Mazkur monografiya nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini ta'lim tizimiga tadbiq etish mavzusidagi loyiha doirasida tayyorlangan.

Sayfullayev B., va boshq. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san'ati an'analar: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Navro'z, 2017. — 216 b.

Xalqimizning ko'p ming yillik tarixi davomida yaratilgan folklor ijro san'atining rang-barang janrlari, urf-odat, marosim va bayramlar nomoddiy madaniy merosning noyob namunalari millatimizning ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Mazkur o'quv qo'llanmada yuqorida keltirib o'tilgan nomoddiy madaniy meros haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

### Badiiy adabiyotlar

Rustamov S. Katta tanaffus: pyesa. — Toshkent: Cho'lon, 2017. — 32 b.

Mazkur kitobda muallifning bir pardali sakkiz ko'rinishli dramadan iborat pyesesini berilgan.

Toshovarov M. Dil davosi: she'rlar. — Toshkent: Lesson press, 2017. — 80 b.

Ushbu kitobda muallifning bir nechta she'rlari berilgan.

### San'at sohasi bo'yicha adabiyotlar

O'zbekistonning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti xrestomatiyasi. — Toshkent: Tafakkur, 2017. — 320 b.

Mazkur xrestomatiya mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasining ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga oid tizimli tarzda yig'ilgan materiallar to'plamidir.

Shermatov N., G'ofurov N. Raqs: uslubiy qo'llanma. — Toshkent: 2017. — 84 b.

Mazkur uslubiy qo'llanmada o'zbek mumtoz raqlarining ahamiyati haqidagi ma'lumotlar berilgan.

### Ma'lumotnomma adabiyotlar

Alisher Navoiy qomusiy lug'at. I-jild. — Toshkent: Sharq, 2016. — 536 b.

Alisher Navoiy qomusiy lug'at. 2-jild. — Toshkent: Sharq, 2016. — 480 b.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharofatini dunyoga tarannum qilgan o'chmasi so'z san'atkoridir.

Mazkur qomusiy lug'atning har ikkala jildini umumiyyat hajmining asosini Alisher Navoiy asarlari haqidagi manbalar tashkil etadi.

Zebiniso ABDUG'ANIYEVA,  
Axborot-resurs markazi direktori

2018-yilning 15-22 yanvar kunlari  
 Britaniya Kengashi ko'magida Buyuk  
 Britaniyalik mutaxassis Jeff Stenford  
 ishtirokida "Maxsus maqsadlarga  
 yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish  
 bo'yicha o'quv reja va dasturlarni  
 takomillashtirish" mavzusida  
 navbatdagi seminar-trening  
 tashkil etildi. Mazkur seminarda  
 mamlakatimizdagi 20 ga yaqin Oliy  
 ta'lim muassasalaridan 30 dan ortiq  
 ingliz tili professor-o'qituvchilari  
 ishtirok etishdi. Seminar-treningda  
 ingliz tili bo'yicha mayjud namunaviy  
 va ishchi dasturlar muhokama  
 qilindi va kamchiliklari aniqlandi.  
*O'rganilgan bilim va tajribaga  
 asoslanib namuna sifatida 9 ta  
 yo'nalishda ishchi dastur yaratildi.*

Bu loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'at qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish Respublika ilmiy-amaliy markazi (RIAIM) tomonidan hamda O'zbekistondagi Britaniya Kengashi bilan hamkorlikda "ESP Reform: ENSPIRE-U" (Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish)

## INGLIZ TILINI O'QITISH BO'YICHA O'QUV REJA VA DASTURLARNI TAKOMILLASHTIRISH

doirasida amalga oshirilmoqda.

Loyihaning maqsadi yangi o'quv yilida zamonaviy ta'lim tizimi talablariga javob beradigan o'quv reja va o'quv qo'llanmalarni ingliz tilida taqdim etishdir. Har bir professor-o'qituvchi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Britaniya Kengashi hamkorligidagi saytda o'zining onlayn profilini ochgan va ESP guruhga a'zo bo'lgan. Olib borilayotgan ishlar mazkur profilda muhokama etib boriladi.

Institutimizning "Tillar va adabiyot" kafedrasasi ingliz tili fani o'qituvchisi Gulnoza Aripova ham bu loyihaning koordinatori sifatida ishtirok etib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari uchun ingliz tilini o'qitish bo'yicha o'quv reja va dasturlarni takomillashtirishda o'z hissasini qo'shamoqda. Ishchi guruhda tuzilayotgan dastur "Tillar va adabiyot" kafedrasining ingliz tili o'qituvchilari va mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilari bilan maslahatlashgan holda o'zgarishlar kiritilib loyihaga taqdim etiladi. Ushbu loyihaning koordinatori sifatida ishtirok etgan ingliz tili professor-o'qituvchilariga

Oliy ta'lim muassasasi kutubxonasi uchun maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish kitoblarining berilishi ko'zda tutilgan.

O'yaylmizki, mazkur loyiha samarali amalga oshiriladi. Yangi joriy etiladigan dasturlar esa mamlakatimiz, shu jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ham ingliz tili fanidan ta'lim tizimi sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari tuzilayotgan ishchi dastur institutimiz talabalarining kelajakda ingliz tilini o'z sohalarida erkin qo'llay olib, mamlakatimiz san'ati va madaniyatini butun dunyoga tanitishga yordam beradi.

Buyuk Britaniyalik loyiha ishtirokchisi, mutaxassis Jeff Stenford o'zbek san'ati, madaniyatiga bo'lган qiziqishi, ayniqsa, milliy cholg'u asboblari o'rganmoqchi bo'lganligi sababli Toshkent bo'yab sayohatga chiqdi. Sayohat davomida "Ilhom" teatri bilan tanishib, u yerda Alisher Navoiyning "Sabbai sayyor" spektaklini tomosha qildi. Jeff Stenfordni o'zbek san'ati va madaniyatiga qiziqishi yanada ortganligi bizni quvontirdi.

Ma'lumot o'rnda aytish



kerakki, tajriba sifatida Gulnoza Aripova tarjimasi asosida "Estrada rejissyorligi" yo'nalishi 2-bosqich talabalar tomonidan ingliz tili da sahnalashtirilgan "Anor" spektaklidan lavha namoyish etildi. Bu kelajakda aynan o'zbek asarlarini dunyo sahnalariga olib chiqish maqsadi yo'lida institutimiz tomonidan qo'yilgan ilk qadam desak, mubolog'a bo'lmaydi.

**Xurshida FAYZULLAYEVA,  
 Tahririyat va nashriyot bo'limi  
 muharriri**

## “ACHCHIQ DANAK”

**Institut talabalarini o'rtasida "Odob-axloq qoidalari" yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilishiga qaramasdan darsga kechikib kelayotganlar hamda ta'lim muassasalarida o'rnatilgan kiyinish tartibiga amal qilmayotgan talaba-yoshlar hamon uchrab turibdi. Jumladan,**

**Botirov Dadaboy** — Xalq ijodiyoti fakulteti "Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi;

**Matrasulov Murodbek** Xalq ijodiyoti fakulteti "Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi;

**Azimov Mirxodi** Xalq ijodiyoti fakulteti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi;

**Ro'zimurodov Ilyosjon** Xalq ijodiyoti fakulteti "Cholg'u jamoalariga rahbarlik"

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi;  
**Qahhorov Furqat** Kino, televideonie va radio san'ati fakulteti "Televideonie va radio rejissyorligi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi;

**Iskandarov Sardor** Kino, televideonie va radio san'ati fakulteti "Televideonie va radio rejissyorligi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi;

**Sagdiev Sardor** Kino, televideonie va radio san'ati "Televideonie va radio rejissyorligi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi;

**Nishonboev Kozim** Teatr san'ati fakulteti "Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi;

**Eslatma: Gazetamizning sahifalarida 3-marotaba nomlari qayd etilgan talabalarga rahbariyat tomonidan qat'iy chora ko'rildi.**

**Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sohibi, filologiya fanlari doktori, professor

**Aziz QAYUMOVning**

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga va yaqinlariga chuqrat'a'ziya izhor etadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Muattar SODIQOVAning**

vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolariga va yaqinlariga chuqrat'a'ziya izhor etadi.

**Muassis:**  
 O'zbekiston davlat san'at va  
 madaniyat instituti

Bosh muharrir:  
 Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:  
 Go'zal XOLIQULOVA  
 Hamdam ISMOILOV  
 Antonina KOSHELEVA  
 Rashid USNATOV  
 Mas'ul kotib:  
 Xurshida FAYZULLAYEVA

Muxbirlar klubi sardorlari:  
 Muhammara BOZOROVA  
 Shakhat DO'STMUHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.  
 Tel.: +99871 230-28-13  
 www.dsni.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
 Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz -1.

Sahifalovchi:  
 Dilmurod DO'STBEKOV

Gazeta institutning Tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.  
 O'chami – A3, hajmi 2 bosma taboq.  
 Nusxasi – 1300 dona. Narxi kelishilgan narxda.  
 Chop etishga 27.02.2018 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqamiga  
 bilan 2012 yil 19 dekabrda ro'yxatga olingan.